INTELLEKTUAL MULK HUQUQIDA PARALLEL IMPORT: XALQARO YONDASHUVLAR VA O‘ZBEKISTON UCHUN TAKLIFLAR

Mardonova Marjona Saydullo qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti
magistratura bosqichi talabasi
Email: mardonovamarzona15@gmail.com

Parallel import — bu intellektual mulk obyektlari bilan himoyalangan mahsulotlarning tovar belgilari egasining roziligisiz, lekin qonuniy ishlab chiqarilgan va xorijda sotuvga chiqarilgan holda ichki bozorga olib kirilishi. Bu hodisa mualliflik huquqlari, patentlar va tovar belgilarining eksklyuzivligini bozordagi raqobat va iste’molchilar manfaatlari bilan muvozanatlash zaruratini yuzaga keltiradi.

Parallel import tushunchasining markazida huquqning tugashi (exhaustion) doktrinasi turadi. Bu doktrina mahsulot birinchi marta qonuniy sotilgandan keyin intellektual mulk egasining unga bo‘lgan nazorat huquqi saqlanib qoladimi, degan savolga javob beradi. Milliy, mintaqaviy va xalqaro tugash modellari mavjud bo‘lib, ularning tanlovi parallel importga bo‘lgan yondashuvni belgilaydi.

Yevropa Ittifoqi mintaqaviy tugash modelini qabul qilgan. AQSHda mualliflik huquqlari doirasida xalqaro tugash tan olingan bo‘lsa-da, tovar belgilari va patentlar bo‘yicha cheklovlar mavjud. Yaponiya esa xalqaro tugash prinsipini sud qarori bilan tan olgan. Hindiston va Janubiy Afrika kabi davlatlar esa parallel importga ijobiy yondashgan, Braziliya va Xitoyda esa cheklovlar mavjud.

Parallel importning bir qancha ijobiy tomonlari mavjud, xususan, mahsulot narxlarining pasayishi, raqobatni oshishi, iste’molchilar tanlovi kengayadi. Salbiy tomonlari esa quyidagilar: brend obro‘siga zarar, mahsulot sifati nazorati yo‘qligi, kafolat va xizmat ko‘rsatish muammolari.

O‘zbekiston qonunchiligida parallel import aniq tartibga solinmagan. Tovar belgilariga oid qonun huquqning tugashi haqida to‘g‘ridan-to‘g‘ri normalarni o‘z ichiga olmaydi. Bu esa huquqni qo‘llashda noaniqlik va muammolarga olib kelmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi xulosa va takliflarni keltirib o’tish mumkin:

1. Qonunchilikka huquqning tugashi prinsipini kiritish.
2. Import qilinayotgan mahsulotlar uchun sifat va yorliqlash talablarini joriy etish.
3. Bojxona xodimlarini parallel import va qalbaki mahsulotlar o‘rtasini ajrata olishi uchuno‘qitish.
4. Yaponiya tajribasi asosida gibrid modelni joriy etish.

Xulosa o’rnida shuni aytshim mumkinki, parallel import — global savdo va intellektual mulk huquqlari chorrahasida joylashgan murakkab institutdir. O‘zbekiston

ushbu yo‘nalishda xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda huquqiy bazasini isloh qilish orqali iste’molchilar manfaatlarini himoya qilishi va iqtisodiy raqobatbardoshlikni ta’minlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ghosh, S. (2015). Parallel Imports in a Globalized World: Policy, Law, and International Trade. Journal of Intellectual Property Law & Practice, 10(8), 601–610.
2. Dinwoodie, G., & Dreyfuss, R. (2012). A Neofederalist Vision of TRIPS: The Resilience of the International Intellectual Property Regime. Oxford University Press.
3. Kur, A., & Dreier, T. (2013). European Intellectual Property Law: Text, Cases and Materials. Edward Elgar Publishing.
4. Maskus, K. (2000). Parallel Imports in Pharmaceuticals: World Bank Policy Research Working Paper.
5. Kirtsaeng v. John Wiley & Sons, Inc., 568 U.S. 519 (2013).
6. WIPO (2020). Intellectual Property and International Trade. www.wipo.int
7. O‘zbekiston Respublikasining «Tovar belgilar, xizmat ko‘rsatish belgilar va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida»gi Qonuni

